

**“Navoiyuran” davlat korxonasining Komplayens xizmati tomonidan
2025-yilning 9 oyi davomida amalga oshirilgan
ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

“Navoiyuran” DK tomonidan 2025-yilning 9 oyi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

Korxonaning Komplayens xizmatiga 4 nafar xodim ishga olindi, ishga qabul qilish jarayonini shaffof va ochiq bo‘lishi hamda sinov tadbirlari internet tarmog‘i orqali real vaqt tizimida kuzatish tartibi ta’minlandi.

9 oy davomida ishga qabul qilingan barcha xodimlar mehnat shartnomalari tuzish jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi bo‘yicha asosiy ichki me’yoriy hujjatlar bilan tanishtirildi, shuningdek, shartnoma shartlarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi shartlar kiritildi.

Korrupsiyaviy holatlarni oldini olish, korxona xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida 10 ta o‘quv seminar tadbiri o‘tkazildi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida, korxonaning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritildi.

Korxona boshqaruv xodimlari va nomzodlar tomonidan taqdim etilgan 830 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar komplayens xizmati tomonidan tahlil etilib, aniqlangan 26 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzasidan korxonaning odob-ahloq komissiyasiga taklif kiritildi.

“Navoiyuran” davlat korxonasida korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati va mavjud xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Korxona xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan 3 ta xizmat tekshiruvlari o‘tkazildi.

Bosh direktor tomonidan barcha ishchi xodimlarni qonunlarga rioya etishi, qonun buzilishi holatiga yo‘l qo‘ygan taqdirda qat’iy chora qo‘llanishi bo‘yicha yozma ravishda ogohlantirildi.

Korxonaning ichki rasmiy kanali orqali ham ishchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashishga jalb etish bo‘yicha e’lon tarqatildi.

Xalqaro sanksiyalar ta’siri doirasiga tushish xavfini bartaraf etish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tuzilayotgan elektron shartnomalarga taraflarning biri sanksiyalar ta’siriga tushgan taqdirda ikkinchi tarafga xabardor etish yuzasidan band kiritish taklifi kiritildi.

Davlat xaridlari sohasida o‘tkaziladigan tender (tanlov) xaridlari elektron davlat xaridlari platformalarida o‘tkazilib, tender (tanlov) natijalari mazkur platformalarda ochiq e’lon qilinmoqda.

“Navoiyuran” davlat korxonasida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomaga asosan 117 ta kontragentlarni tekshirish haqida hisobot tuzildi, kontragentlarni tekshirish natijalari bo‘yicha 1984 ta xulosalar (cheklist) berildi.

Shartnomalar ijrosi tahlil qilinishi natijasida, ijrosi ta‘minlanmagan umumiy summasi 714,1 million so‘m bo‘lgan 10 ta shartnomani bekor qilindi.

Hisobot davrida 29 marta ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy targ‘ibot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 2 ta televideniya, 1 ta radio, 10 ta gazeta va jurnallar va 16 marta veb-sayt va boshqa elektron axborot vositalari orqali targ‘ibotlar amalga oshirildi.

Xususan, “Do‘stlik bayrog‘i” gazetasida “Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash - “Navoiyuran” davlat korxonasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri” sarlavhasi ostida korxona Komplayens xizmati boshlig‘i A.Mustafayevning maqolasi chop etildi.

“Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetasining 2025-yil 25-sentabrdagi 38-sonida “Navoiyuran” DK bosh muhandisi A.Saparovning “Korrupsiyaga qarshi shaffof yo‘l” sarlavhali maqolasi chop etildi.

“Konchilar hayoti” gazetasining 2025-yil 29-sentyabrdagi 18-sonida “Navoiyuran” DK Favqulotda vaziyatlar xizmati boshlig‘i Sh.Ikromovning “Favqulotda vaziyatlarga tayyorgarlik jarayonida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratning roli” nomli maqolasi chop etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida O‘zbekiston Milliy axborot agentligining muxbiriga intervyu berildi va ushbu intervyu agentlikning uza.uz veb saytida “Korrupsiyaga qarshi kurash barchamizning burchimiz” mavzusida yoritildi. Nurobod ijtimoiy-siyosiy gazetasiga “Korrupsiyasiz kelajak – bizning tanlovimiz” mavzusida maqola chiqarildi.

Shuningdek, Navoiy viloyat radiosiga “Navoiyuran” DKda korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida axborot berildi va viloyat yangiliklari eshittirishida O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi yuzasidan korxonada amalga oshirilgan ishlar haqida ma‘lumot berildi.